

Ekologik toza va yuqori samaradorlikka ega dizenfeksiya qurilmasi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Konstrutorlik byurosi va tajribaviy ishlab chiqarish ilmiy-texnik markazi olimlari tomonidan mobil ozon generatori namunasi ishlab chiqildi.



Qishloq xo'jalik va meva-sabzavot mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash, shuningdek, ichimlik suvi va suvli eritmalarni zararsizlantirish va tozalash uchun zamonaviy samarali, ekologik toza texnologiyalarni yaratish butun dunyoda dolzarb muammo hisoblanadi.

Konstrutorlik byurosi va tajribaviy ishlab chiqarish ilmiy-texnik markazi tomonidan ishlab chiqilgan ozonizatorning asosini havo namligiga sezgir bo'lmagan maxsus matritsa elektrodlaridagi toj razryadlari tashkil etadi.

Mavjud ozonizatorlardan farqli o'laroq, tavsiya etilayotgan mazkur qurilmadan og'ir dala sharoitlarida ham foydalanish mumkin.

Ozon generatori xonalarni bakteriyalardan zararlantirish hamda urug'larga ekish oldidan ishlov berish (fungitsid o'rniga) uchun ham qo'llaniladi. 1 g ozon ishlab chiqish uchun energiya sarfi-40 Vtch. Mobil ozon generatori (bir soatda 10-20 g ozon ishlab chiqaradi) katta hajmli xona va omborlarni, sovutqich va refrijeratorlarga tez ishlov berish imkoniyatini beradi. Ozon texnologiyasi o'zining ekologik tozaligi va yuqori samaradorligi bilan ajralib turadi.

Ozon generatorlarini qishloq xo'jaligi tarmoqlariga keng qo'llash maqsadida mikrobiologlar bilan hamkorlikda issiqxonalar tuprog'ini bakteriyalardan zararlantirish, dorivor, ozuqaviy qo'shimchalar olish uchun suv o'tlaridan xlorella va spirulinalarni yetishtirishning samarali biotexnologiyalari ishlab chiqilmoqda.